



2025-yil "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" va 5-iyun xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag'ishlanadi

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L – VOHA EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2025-yil 5-6-iyun





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
BUXORO VILOYAT EKOLOGIY, ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA
IQLIM O‘ZGARISHI BOSHQARMASI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
GREEN UNIVERSITY - MARKAZIY OSIYODA ATROF MUHIT VA IQLIM
O‘ZGARISHINI O‘RGANISH UNIVERSITETI
KAZAN FEDERAL UNIVERSITETI
TUYMEN DAVLAT UNIVERSITETI
OMSK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

5-iyun xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag‘ishlanadi

**IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L – VOHA
EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2025-yil 5-6-iyun

BUXORO – 2025

«Madaniy resurslarni targʻib qilish va saqlash», «Iqtisodiy barqarorlik», «Ijtimoiy barqarorlik», «Ekologik barqarorlik», «Turizmni rivojlantirish va qiymat zanjiri integratsiyasi», «Turizmni boshqarish va ustuvorlik», «Infratuzilma va kommunikatsiyalar», «Sogʻliqni saqlash va xavfsizlik».

Eng yaxshi turizm qishlogʻi boʻlish uchun nomzodlar roʻyxatiga Oʻzbekistonning jami 5 ta manzili — Samarqand viloyatidagi Konigil, Navoiy viloyatidagi Sentob, Surxondaryo viloyatidagi Sangardak, Jizzax viloyatidagi Uxum va Fargʻona viloyatidagi Avval turizm qishloqlari kiritilgan. Sentobga 2023-yilning 17-mart kuni rasman turizm qishlogʻi maqomi berilgan.

Bugungi kunda qishloqda 30 dan ortiq tadbirkorlik subyekti mavjud. Qishloqda muntazam ravishda Angliya, Fransiya, Avstriya, Germaniya, Italiya, Rossiya va boshqa davlatlardan xorijiy sayyohlar oqimi kuzatilmoqda. Qishloqda 20 ta oilaviy mehmon uyi va 3 ta hostel faoliyat koʻrsatmoqda. Ularga belgilangan standartlar asosida mehmon uylari nomi tushirilgan koʻrsatkichlar oʻrnatildi. Ayni damda turizm qishlogʻida 15 dan ortiq turistik xizmat yoʻlga qoʻyilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabiyev A. “Tarixiy oʻlkashunoslik” T. “Oʻqituvchi” 1996.
2. Mulladjanova R.A. “Tarixiy oʻlkashunoslik va turizm”. T. 2013.
3. Saidkarimova Z.S. “Maktab oʻlkashunosligi” (maʼruza matni). T.1999.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/18/sentob/>
5. https://uza.uz/oz/posts/sentob-eng-yaxshi-turizm-qishlogi_531199

QOROVULBOZOR TUMAN YAYLOVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Mirzoyeva Istat Elmurodovna,

Buxoro davlat universiteti

Nematov Anvar Nusratovich,

Buxoro davlat universiteti

Eshmanov Husniddin Narzullo oʻgʻli,

Buxoro davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bogʻliq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. “Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni oʻylab ish tutmasak, koʻzlagan maqsadimizga erisha olmaymiz, ona-tabiatni toza-ozoda tutish, yer va suv resurslarini, ekologik tizimni asrash, daraxt ekib, bogʻ yaratish degani. Eng muhim masala — aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Bugun koʻchaga yoki istalgan joyga qarang, hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni koʻrasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Agar shu yurt, shu tuproq biz uchun muqaddas boʻlsa, nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz?”, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Oʻzbekistonda, yaylov maydonlari 20,8 mln. gektarni (mamlakat umumiy maydonining yarmiga teng) egallaydi, shundan 17,4 mln.gektari — choʻl mintaqasiga toʻgʻri keladi. Soʻnggi 15-20 yillarda, koʻchma chorvachilikda yaylovlardan meʼyorda foydalanmaslik, eroziya, mollarni yaylovlarda ortiqcha boqish va boshqa antropogen taʼsirlar natijasida ozuqa hajmining yoʻqolishi — degressiyasi sodir boʻldi. 20,8 mln. ga yaylovlardan 16,4 mln. gektari (78%) degressiyaga uchragan boʻlib, undan: 9,3 mln. ga maydondagi yem-xashak ozuqasi 20-30%; 5 mln. ga maydondagi 30-40%; 2,1 mln. ga yoki 40%dan ortiq maydondagi yem-xashak ozuqasi degressiyaga uchragan.

Yaylovlardan foydalanish maqsadida uzoq tarixiy davrlar davomida 200 dan ortiq choʻl quduqlari qazilgan, ularning aksariyatidan hozir ham foydalanib kelinmoqda. Buxoro viloyati hududida neft-gaz qidiruv ishlari 1940-yillarda boshlangan boʻlsa, bu maqsadli jarayon hanuzgacha davom etmoqda. Neft-gaz, qisman esa uran qazib olish boʻyicha infratuzilma tarmoqlari yaratilgan. Amudaryo suvini Buxoro, Navoiy viloyatlariga yetkazish boʻyicha Amu-Buxoro mashina

kanalining bosh (magistral) qismi (1962-1975) hamda zovurlarning quyi qismi cho'l zonsidan o'tkazilgan, oqibatda cho'llarga xos bo'lmagan ko'l, ko'lmak va to'qay lanshaftlari paydo bo'lgan[4].

Viloyat yaylovlarini boyitish va muhofaza qilish maqsadida Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor vohalari atroflarida 13 ta o'rmon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning yer fondi 573-802 gektarni tashkil qiladi, shulardan 295-454 (47%) gektari cho'l o'rmonlari (saksovul, qandim, cherkez, yulg'un) bilan qoplangan.

Keyingi yillarda cho'l-yaylov zonasini xususiylashtirish, ya'ni chorvachilik, baliqchilik fermer xo'jaliklari tashkil qilish yo'lga qo'yildi va bu jarayon davom etmoqda. Shu bois cho'l-yaylov zonasida ham aholi soni, infratuzilmalar turi va ko'lami tobora takomillashtirilib borilmoqda, boshqacha qilib aytganda antropogen yuk kun sayin ortmoqda. Lekin bu sohalar ichida cho'l-yaylov zonasi uchun eng asosiysi (yer qa'rida yotgan ma'danlarni hisobga olmaganda) lanshaftlarning yaylov resurslaridan samarali foydalanishdir. Ammo yaylov resurslarinig va mahalliy suv resurslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qorovulbozor tumanida quyidagi yaylov tiplari ajratilgan: Juzg'unli-iloqli-efemerli-oq saksavulli yaylovlar, saksovulli-selinli-aralash o'tli yaylovlar.

Bu yaylov tipi xo'jalikda eng katta maydonni egallaydi – 217235 ga. Bu yaylovlarning o'rtacha hosildorligi gektaridan 1,8 sentnertashkni tashkil qiladi[5].

Qum uyumlarida daraxt yoki yirik butalardan oq saksovul, juzg'un (qandim), cherkez; butalardan oq boyalich, quyon suyak, qizilcha kabi o'simliklar o'sadi.

Juzg'un ildizlari yon tomonga 20 m gacha o'sib qumlarni ma'lum darajada ushlab turadi. Qumlarni mustahkamlashda ko'p yillik o'tlardan selen alohida ahamiyatga ega. U tarqoq ildizlari hamda yer ustki qismlari (poyalari) bilan qumlarning ko'chishiga to'sqinlik qiladi va boshqa o'simliklar (juzg'un, saksovul va boshqalar) urug'ini tutib qolib, o'sishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, qumda rivojlanishiga moslashgan ko'p yillik efemer o'simlik — iloq ildiz poyasi orqali ham ko'payadi. Qisqagina bahor oylarida tez o'sib, gullab, meva berishga ulguradi.

Saksovul (*Haloxylon*) sho'radoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi. Bo'yi 1,5–12 m, tanasining diametri 1 m gacha boradi. Yo'llarda ixotazorlar barpo etishda foydalaniladi. Qora saksovul katta daraxtzorlar hosil qiladi, oq saksovu'dan tana va shox-shabbasining qoramtir bo'lishi, bargining tuzilishi bilan ajralib turadi. Oqsaksovul (*H. persicum*) -yirikbuta. Bal. 2,5–6 m. Ildizi 10–11 m chuqurlikka boradi. Oqsaksovul qumliklarni mustahkamlash uchun ekiladi.

Tumanda Nog'oratepa deb atalmish saksovu'zorlar ichida turli xil chiqindilarni keltirib tashlaganlar. Qorovulbozor vohasida keyingi yillarda sug'orma –meliorativ ishlarning sifati pasayib ketgan. Lotok tizimidagi sug'orish shaxobchalari ko'p joylarda ishdan chiqqan. Lotoklar sinig'idan katta maydondagi yaylovzorlar, sug'orma erlarni suv bosgan natijada mana shunday hududlar botqoqqa aylanib chalchiq holatda kelgan. Ularni ta'mirlash kerak ayrim hududlarni ulardan tozalash kerak. Yaylov uchun xos bo'lgan o'simliklar turi ayniqsa dorivor o'simlik isiriq ham yo'qolib bormoqda.

Tuproqning unumdorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy jarayonlardan biri botqoqlanish- suv va irrigatsiya eroziyasidir. Irigatsiya eroziyasiga asosan sug'orma och va to'q tusli bo'z tuproqli yerlar moyil bo'ladi. Bu maydonlarning yarmiga yaqini bo'laklangan relefli joylar va ularda irrigatsiya eroziyasi rivojlanish ehtimoli cho'l hududlaridagiga nisbatdan ko'proqdir. Tuproqlarning yuvilishi qiyalik 1-20ga yetganda boshlanib, qiyalik oshgan sari eroziya jarayoni jadallashadi.

Arid zonada botqoqlanish sof holda kam uchraydi: aksariyat tuproq sho'rlanishi bilan birga yuz beradi, natijada ekinlar yaxshi rivojlanmaydi va nobud bo'ladi. Botqoqlanish tabiiy va sun'iy sabablarga ko'ra yuz beradi. Tabiiy sabablar: grunt suvlarining oqib ketishini qiyinlashtiradigan relyef xususiyatlari va geologik-gidrogeologik sharoitlar (masalan, Farg'ona, Surxon-Sherobod vodiylaridagi quyi terrasalar, tekis hudud va botiqlardagi daryolarning qalin terrasalari); toshqinlar natijasida yerlarni suv bosishi; suvning daryova ko'llardan sizishi va sho'rlanishi insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sun'iy sabablar grunt suvlarining oqib ketishi tabiiy qiyin bo'lgan yerlarni drenajlar qurmasdan sug'orish;

Kanal atrofidagi yerlarga grunt suvlar sathi 2 metr hisobida. Tuman relyefining aksariyat joylarida atmosfera yog‘inlari qish va bahor oylarida yuza oqimlar hosil qiladi. Ana shunday joylarni nam-suv yig‘uvchi jo‘yaklar usuli bilan fitomeliorasiya qilish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, yalanglangan, shamolro‘y maydonlar ayniqsa gaz-neft qidiruv va qazib olish bilan bog‘liq rayonlarda hosil bo‘lgan texnogen landshaftlar bunday tadbirlarga muhtoj[2].

Yaylov qudrati past bo‘lgan mazkur landshaftlarni fitomeliorasiya yo‘li bilan boyitish yo‘llari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti olimlari tomonidan amalda isbotlangan (Теоретич. осн. иметодфитомелиорасии...Т.1973).

Cho‘l-yaylovlardagi saksovuldan barpo qilingan ixota daraxtzorlarida ozuqalardan 20-25%gacha qo‘shimcha hosil olish imkonini yaratadi. Hayvonlarning iste‘mol qilishi va urug‘ini yeyishiga qaramay, saksovulzorlardagi hosil 8-10s/ga oshadi. Pirovardida chorvachilik uchun ozuqa bazasi yaratiladi[3].

Yerlarning ortiqcha sho‘rlanishi sho‘rlanmagan yerlarga nisbatan kam hosil beradi. Yuqori hosil olishda, davlat va yerdan foydalanuvchilardan katta mehnat va yetarlicha mablag‘ talab etiladi. Shuning uchun yerdan to‘g‘ri, unumli foydalanish, doimo yerning hosildorligini oshirish, davlat siyosatining mintaqaviy, hududiy va mahalliy hamda mamlakat va har bir xo‘jalikning iqtisodiy yagona tizimini rivojlantirishga rejalarining bir bo‘limi sifatida qarash lozim.

Tuproq sho‘rlanishi suvda eriydigan mineral tuzlarning tuproqda to‘planish jarayoni. Sho‘rlanish asosan, cho‘l va chala cho‘llarda pasttekislihamda yer osti suvlari oqib chiqmaydigan botiqlarga xos.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, yaylovlarda tartibsiz mol boqilishi, daraxtlarning o‘tin va boshqa maqsadlarda ayovsiz kesib yuorilishi yaroqsiz yerlar maydonining uzluksiz kengayib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Tuman yaylovlarini ekologik holatini o‘rganish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirishni joiz deb topdim:

1. Fitomelioratsiya ishlarini yo‘lga qo‘yish. Birinchi navbatda taqirli yerlarni ya’ni gilli cho‘llarni boyitish lozim.

2. Tashlandiq kovlangan yerlarni (texnogen landshaftlarni rekultivatsiya qilish)

3. Quduq (qo‘shlar) atroflarida saksovulzor o‘rmonlarni tashkil qilish (Po‘stindo‘z qudug‘i atrofida qo‘shlar tashkil qilingan).

4. Cho‘llarda yo‘llar asfalt qurish zarur, bu cho‘l yaylovlarni muhofaza qilishning bir yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirzoyeva I.E. Qorovulbozor tumanining geoekologik muammolari. «Geografiya XXI asrda: muammolar, rivojlanish istiqbollari» Respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari. Samarqand, 2017. 207-208 b.
3. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. Buxoro, 1994.- 67 b.
4. Soliyev B., Shodiyev S. Sahrodagi mo‘jiza.- Toshkent, Sharq, 2000. 208 b.
5. Soliyev B. Qorovulbozor tumani: o‘tmish, bugun va kelajak chorrahasida. “Tafakkur”, Toshkent, 2013.

QASHQADARYO VILOYATI TURISTIK IMKONIYATLARI

Egamqulov Husniddin Erkaboyevich,

Guliston davlat universiteti

Eshqobilov Asadbek Erkin o‘g‘li,

Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Turizmning iqtisodiy va madaniy jihatlarini, shuningdek, mintaqada rivojlanayotgan turizm resurslari haqida ma’lumotlar yoritilgan. Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy va tabiiy obidalar, shifobaxsh buloqlar va dam olish maskanlari, shu jumladan Miroqi shaharchasi, Ko‘l va G‘ilon qishloqlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Viloyatda turizmni rivojlantirish uchun

MUNDARIJA

O.X.Xamidov. EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA ILMIY HAMKORLIKNING O'RNI.....	3
A.A.Qodirov. IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ATROF -MUHIT MUHOFAZASIGA E'TIBOR.....	5
1-sho'ba. Iqlim o'zgarishi sharoitida cho'l-voha ekosistemi havo, suv va tuproq komponentlari va ulardan foydalanish muammolari va yechimi.....	7
N.K.Komilova, L.K.Karshiboyeva, B.X.Maxmudov. IQLIM O'ZGARISHINING AHOLI O'LIMIGA TA'SIRI VA UNING HUDUDIIY TAFOVUTLARI (MIRZACHO'L IQTISODIIY RAYONI MISOLIDA)	7
Alimkulov Nusratulla Rahmonkulovich, Qarshiboyeva Shaxnoza G'ayrat qizi. MIRZACHO'L SHAROITIDA SUV MANBALARIDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH	10
G'o'dalov Mirkomil Ravshanovich, Qosimov Nurmuxamad Dursinovich. SANGZOR HAVZASI IQLIMI VA UNING KO'P YILLIK O'ZGARISHINI ILMIY-AMALIIY JIHATDAN TAHLIL QILISH.....	12
Xayitov Y.Q., Bayozova Z.S., Hamdamova M. OQAVA SUVLARNING AYRIM GIOEKOLOGIK XUSUSIYALARI HAQIDA.....	15
Рафико́ва Н.А. ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА СУВ ҲАВЗАЛАРИДАН РЕКРЕАЦИЯДА ФОЙДАЛАНИШНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ, МУАММОЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШИ...	17
Fayziyev Elyor Aliyevich, Hasanov Jonibek Otabek o'g'li. JANUBIIY OROLBO'YI YERLARINING SHO'RLANISH HOLATI HAMDA MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH MASALALARI.	19
Yu.B. Raxmatov. IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIK VAZIIYAT	21
Komiljonova Sh., Y.D.Xolov. SUV RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH MASALALARI.....	24
Mardonova Saodat Muzaffarovna. O'ZBEKISTONDA IQLIMGA MOSLASHUV BO'YICHA OLII BORILAYOTGAN SALMOQLI HARAKATLAR	26
Mardonova Saodat Muzaffarovna, Muhammadova Sadoqat Nurmatjonovna. CONCEPTS OF CLIMATE AND WEATHER, THEIR GENERAL CLASSIFICATION, AND CONTRIBUTING FACTORS.....	28
Farmonova F., Y.D.Xolov. BUXORO VILOYATINING SUV RESURSLARI VA UNING IFLOSLANISH HOLATI	30
Babamuradova N.J. IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH MUAMMOLARI.....	32
Negmatov Samariddin Qarshiboyevich, Narzullayeva Lolaxon Shavkat qizi, Xaydarova Fotimabonu To'liqinovna, Xudoyberdiyeva Sevinch Shavkatbek qizi. IQLIM O'ZGARISHINING INSONIYAT HAYOTIGA TA'SIRI.....	34
Хўжамова Муҳаббат Тоғай қизи. ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ	40
Muratova Gulsara Saidovna. Iqlim o'zgarishining inson salomatligiga ta'siri.....	44
Negmatov Samariddin Qarshiboyevich, Narzullayeva Lolaxon Shavkat qizi. IQLIM O'ZGARISHINING INSONIYAT HAYOTIGA TA'SIRI.....	46
Qosimov Nurmuxamad Dursinovich. SANGZOR DARYO HAVZASINING ICHKI HAVZALARINI HAVZAVII YONDOSHUV ASOSIDA TAHLIL QILISH.....	49
Umirzaqov Oybek Alimqul o'g'li, Umirzaqova Gulbahor Baxtiyor qizi. SUN'IIY SUV HAVZALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRI (SUV OMBORLARI MISOLIDA).....	53
Isoyeva Madina Nu'monovna. CHO'L-VOHA SHAROITIDA IQLIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIIY TEXNOLOGIK ASOSLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	56

2-sho'ba. Iqlim o'zgarishi sharoitida cho'l-voha ekosistemi florasi va faunasi, biologiyasi va muhofazasi masalalari.....

62

U.T.Norboeva, N.K.Hamroqulova, BUXORO VILOYATINING STRESS SHAROITLARIDA SOYA NAVLARI MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARI	62
H.Q.Esanov, K.A.Aslova, N.R.Rahmonov, A.M.Umedov, O'ZBEKISTONDA BIOXILMA-XILLIKNI TADQIQ ETISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR	64
Boltayeva Zarina Azamatovna., Habibova Nasiba Anvarovna, IQLIM O'ZGARISHINING GO'ZA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	67
Adizova Hamida Raximovna, Hayotova Shohida, O'SIMLIK LARINING O'SISH VA RIVOJLANISHIDA MINERAL ELEMENTLARINING AHAMIYATI.....	69
D.I.Bazarboyev, XORAZM VILOYATI SHAROITIDA KINO (Chenopodium quinoa Willd.) O'SIMLIGINI YETISHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	72
Omonov Oybek Eshmirzayevich, Norxodjayeva Aziza Muzafarovna, QASHQADARYO BOTANIK-GEOGRAFIK RAYONIGA KIRUVCHI KATTA VA KICHIK O'RADARYO HAVZALARI FLORASI DORIVOR O'SIMLIK LARINING BIRLAMCHI RO'YXATI.	75
X.T. Nazarov, S.M. Mavlonova, K.K. Davronov, D.X. Nazarova, I.X. Sanaqulova, TOG'OLDI YAYLOV CHORVACHILIGIDA FITOMELIORATIV TADBIRLARINING AHAMIYATI	83
Хайитов Ё. Қ., Эргашева Х.И., Эргашев А.И., СУВ РЕСУРЛАРИНИ МИКДОР ВА СИФАТ ЖИХАТИДАН МУХОФАЗА КИЛИШ. (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	86
Тўраев М.М., Авазхонова Элмира Қахрамон кизи, Мансурова Ойбарчин Жобир кизи, САРМИШСОЙ ДАРАСИ УМУРТҚАЛИ ҲАЙВОНЛАРИ ТЎҒРИСИДА МАЎЛУМОТ ...	88
Raxmanova S.Dj., MAMLAKATLAR VA MINTAQALAR IQTISODIYOTINING JAHON FLORASI VA FAUNASI BIOXILMAXILLIGIGA BOG'LIQLIGI	91
Asadullayev Anvar Narzullayevich, IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIK TA'SIR.....	93

3-SHO'BA. CHO'L-VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNI OQILONA TASHKIL ETISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

96

Большаник Петр Владимирович, ФОРМИРОВАНИЕ И АНТРОПОГЕННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЛАНДШАФТОВ В УСЛОВИЯХ СЕМИАРИДНОГО КЛИМАТА ЗАПАДНОЙ СИБИРИ.....	96
Komilova N.K., Mavlonov A.M., CHO'L HUDUDLARINI TURISTIK JIHATDAN TADQIQ QILISHNING HORIJ TAJRIBASI	98
Avezov Muxriddin Maqsud o'g'li, Ismatullayev Komil Mamasharif o'g'li, SARIOSIYO TUMANINING GIDROGEOLOGIK HOLATI VA UNDAN IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA FOYDALANISH MASALALARI.....	101
Bayqabilov Xusnudin Mardanovich, Нормуродова Дилноза Зоир кизи, GEOURBANISTIKADA SHAHARSOZLIK MASALALARI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI	105
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich, Shadmanov Elbek Erkin o'g'li, SURXONDARYO VILOYATI EKOTURIZM IMKONIYATLARI.....	108
Norqulov U.V., Tillaboyeva M.M., Botirov X.F., CHO'LLANISHNING SALBIY OQIBATLARI VA UNING EKOLOGIK MUAMMOLARINI TAHLIL QILISH	112
Shodiyeva Go'zal Raxmatullayevna, Pardayev Doston, O'ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK VAZIYATLAR VA OLIV BORILAYOTGAN CHORA TADBIRLAR.	113
Ҳалимова Г.С., Бабакулова Ш.Р., ОБМИНЗАТОВ ТИЗМАСИ (ҚИЗИЛҚУМ) ЛАНДШАФТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТАРИХИ ВА ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ	116
O'ktamova Sadoqatxon Murodjon qizi, SHOHIMARDONSOY DARYO HAVZA LANDSHAFTLARINING GEOEKOLOGIK HOLATI VA RAYONLASHTIRISH MASALALARI	120
Зайнутдинова Д.К., Уктамова З.О., РОЛЬ НОЗОЭКОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ.....	123
Ahmedova Yulduz Qosimovna, CHO'LLADA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH	125

Halimova G.S., Mansurova F.N., G'JDUVON TUMANI TABIATI VA EKOLOGIYASINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI.....	128
Kodirova Maxfuza Maxmudovna, SENTOB QISHLOG'I LANDSHAFTLARI VA TURIZM IMKONIYATLARI	130
Mirzoyeva Istat Elmurodovna, Nematov Anvar Nusratovich, Eshmanov Husniddin Narzullo o'g'li, QOROVULBOZOR TUMAN YAYLOVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI	133
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich, Eshqobilov Asadbek Erkin o'g'li, QASHQADARYO VILOYATI TURISTIK IMKONIYATLARI	135
Norquvvatova Umida, Musurmonova Muxlisa, ATROF – MUHIT VA EKOLOGIYA MUAMMOLARI, UNI YAXSHILASH MASALALARI.....	138
Н.Ж.Бабамурадова, ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРИРОДЫ БУХАРСКОГО ОАЗИСА.....	140
Mirzayeva Aziza Zokir qizi, IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA JIZZAX VILOYATI SUV MANBALARIDAN TURIZMDA FOYDALANISH	142
Xaydarova Fotimabonu To'lqinovna, Ibroyimova Bahor Iskandar qizi, IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIYA.....	144
Suyarova Nargiza Ashur qizi, "QARSHI CHO'LI EKOTURIZMI: IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI"	147
To'g'ilov Husan Samariddin o'g'li O'ZBEKISTONGA KELAYOTGAN XORIJIY TURISTLAR OQIMINING DINAMIKASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	149
Adixonova Z.A., Halimova G.S., QULJUQTOV TIZMASINING GEOLOGIK VA GEOMORFOLOGIK JIHATLARI XUSUSIDA	151
Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Sobirov O'lmasbek Norbek o'g'li, BUXORO VILOYATI SUV RESURLARNING TASNIFI VA GIDROEKOLOGIK XUSUSIYATLARI	153
Qalandarova D.D., Nuritdinov R.M., Islomova M.G', GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI YUMSHATISH YO'LLARI.....	156
Ro'ziqulov Jahongir Orziqulovich, SURXONDARYO HAVZASI DARYOLARI OQIMINING HOSIL BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IQLIMIY OMILLAR.....	159
Nurliboyev Xusan Xolbek o'g'li, IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA DARYOLAR SUV SARFI VA MUALLAQ OQIZIQLARINI O'RGANISHDA BIRLAMCHI KUZATUVLAR TAHLILI	163
Ergasheva Mayjuda Komiljonovna, Sharopova Shaxrizoda G'ayrat qizi, QUYI ZARAFSHON VOHASI LANDSHAFTLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI ..	165

4-SHO'BA. CHO'L-VOHA EKOSISTEMASI VA IQTISODIYOT (MODDIY VA NOMODDIY ISHLAB CHIQRISH) SOHALARIDA TOZA EKOLOGIK MAHSULOTLAR TAYYORLASH VA IKKILAMCHI XOMASHYOLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....

Boratova Muxtasam G'aniyevna, Rasulova Zilola Asatulla qizi, Muxammedov Shuxrat Qosimovich, SAMARQAND VILOYATIDA EKOTURIZMNING RIVOJLANISHINI ASOSIY ASPEKTLARI	168
Boratova Muxtasam G'aniyevna, Muxammedov Shuxrat Qosimovich, Qosimova Dilafruz Shuxrat qizi, "QIZILQUMSEMENT" ZAVODINING ATROF-MUHITGA TA'SIRI VA UNING EKOLOGIK MONITORING NATIJALARIGA TAHLILY YONDASHUV	171
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna, IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK YECHIMLARI.....	176
Xujamova Muhabbat Tog'ay qizi, QASHQADARYO VILOYATINING SUG'ORILADIGAN YERLARI VA EKIN TURLARI.....	180
D.D.Qalandarova, X.O.Odilova, M.G'.Islomova, YASHIL IQTISODIYOT – YANGI AVLOD BOG'LARINING POYDEVORIDIR.....	182